

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro'yxatga olindi

№ _____

2024 yil “__” _____

“TASDIQLAYMAN”

Buxoro davlat universiteti rektori

_____ **O.X. Xamidov**

2024 yil “__” _____

“BYUDJET HISOBI VA HISOBOTI”

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400 000 - Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi:	410 000 - Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi:	60410100- Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)

Buxoro – 2024

Fan/modul kodi BUDAR1406		O'quv yili 2024	Semestr 7	ECTS - Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari 6	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Byudjet hisobi va hisoboti		72	156	180
2.	I. Fanning mazmuni 1. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari, unda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar, usullarini o'rgatish, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda o'rganilgan usullar asosida hisobot tuzish va taqdim etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, byudjet tashkilotlari xo'jalik jarayonlarini amalga oshirishga ijobiy yondashuv hamda ilmiy bilim va malakalarini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Talaba byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi tamoyillarini, byudjet tashkilotlari faoliyati bilan bog'liq daromad va xarajatlarni hisobga olish usullarini, moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari va ularning shakllanishini, ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur ma'lumotlarni byudjet hisobi va hisobotlaridan olishni bilishi va ulardan foydalana olishidan iborat. Fanning vazifasi - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar. ijodiy fikrlash jarayoniga byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etilishini qonunlar, qarorlar va boshqa normativ hujjatlarni o'rni va ahamiyatini ochib berish hamda byudjet hisobotini tuzish va topshirish tartibini o'rgatish. Fanning asosiy vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi: - byudjet hisobi va hisobotining nazariy asoslarini o'rganish; - byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining uslubiy asoslari bo'yicha bilimga ega bo'lish; byudjet korxonalarida hisob va hisobotning tashkiliy asoslarini o'rganish; - byudjet korxonalari aktivlari, kapital va majburiyatlari, daromadi. xarajatlari, foyda hamda zararlarini hisobga olish uslublarini o'zlashtirishdan iboratdir. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)				

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi konsepsiyasining zaruriyligi va tashkil qilish asoslari, byudjet hisobining xalqaro standartlariga o'tishning ahamiyati, O'zbekiston Respublikasi byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari va sxemasi.

2-mavzu. Byudjet tashkilotlarida pul mablag'lari hisobi.

Pul mablag'lari va hisob—kitoblarning mazmuni xamda ularni hisobga olishning vazifalari, kassa operatsiyalarini hisobga olish, hisob - kitob schyoti buyicha operatsiyalarni hisobga olish, valyuta schyoti buyicha amalga oshirilgan operatsiyalarni hisobga olish, IAS21 standartning maqsadi, valyuta operatsiyalarini kayta hisoblash.

3-mavzu. Byudjet tashkilotlarida g'azna muomalalari hisobi.

Pul mablag'lari va hisob-kitoblarning mazmuni hamda ularni hisobga olishning vazifalari, kassa operatsiyalarini hisobga olish, hisob - kitob schyoti bo'yicha operatsiyalarni hisobga olish, valyuta schyoti bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni hisobga olish, IAS21 standartning maqsadi, valyuta operatsiyalarini qayta hisoblash.

4-mavzu. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi.

Asosiy vositalarning turkumlanishi, baholanishi va hisobga olish vazifalari, IAS 16 standartning maqsadi, asosiy vositalar kirim qilish hisobi, Asosiy vositalarni qayta baholash tartibi, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari va ularning buxgalteriya hisobi, asosiy vositalarning chiqib ketishi hisobini yuritish qoidalari

5-mavzu. Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralar hisobi

Tovar moddiy zahiralar (TMZ)ning ta'rifi va turkumlanishi, tovar moddiy zahiralarini baholash, xarid qilingan tovar moddiy zahiralarining tannarxi, tovar moddiy zahiralarining chiqib ketishi, TMZ qoldig'ini sotishning sof qiymati bo'yicha baholash, TMZni hisobga olishning davriy va uzluksiz tizimlari, TMZga doir axborotlarni moliyaviy hisobotda yoritish

6-mavzu. Byudjet tashkilotlarida mehnat sarfi va unga haq to'lash hisobi

Mehnat va ish haqi haqida tushuncha hamda uni hisobga olishning vazifalari, mehnatga haq to'lashning shakllari va tizimlari hamda ularni hujjatlashtirish, mehnat ta'tili va kasallik bo'yicha qo'shimcha haq hisoblashni hujjatlashtirish va hisobini yuritish tartibi, ish haqidan ushlab qolinadigan ajratmalar va to'lovlar hisobi.

7-mavzu. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'lovlari hisobi

Yagona ijtimoiy to'lov tushunchasi, ijtimoiy to'lovning asosiy turlari, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armalari bo'yicha operatsiyalarning hisobini yuritishning o'ziga xos xususiyatlari, ularning hisobini hujjatlashtirish tartibi

8-mavzu. Byudjet tashkilotlarining debitorlar va kreditorlar bilan

hisoblashishlar hisobi

Majburiyatlarning ta'rifi, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarning tan olinishi, majburiyatlarning turkumlanishi, uzoq muddatli majburiyatlar hisobi, qisqa muddatli majburiyatlar hisobi, sotish va qayta ijaraga olish operatsiyalari hisobi.

9-mavzu. Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tasnifi, turlari xamda hisobga olish vazifalari, joriy solik majburiyatlari xamda joriy soliq aktivlarini tan olish, kelgusida solik solinadigan vaktinchalik farqlar hisobi, foyda soligi hisobi, ko'shilgan qiymat solig'i hisobi, mol-mulk va resurs solikari hisobi.

10-mavzu. Byudjet tashkilotlarida inventarlashni o'tkazish tartibi va uni hisobga olish.

Byudjet tashkilotlarida inventarlashni o'tkazish tartibi va uni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni buxgalteriyada aks ettirish tartibi, ma'lumotlarni yoritib berish.

11-mavzu. Byudjet tashkilotlarida hisobot

Moliyaviy hisobotning mazmuni, mohiyati va tarkibi, moliyaviy hisobot tuzish va uni tashkil etish, buxgalteriya balansi tuzilishi va uning tarkibi. moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul okimi to'g'risidagi hisobotni tuzish va uni tuldish, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzish, biznes birlashuvi va konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish
2. Byudjet tashkilotlarida pul mablag'lari hisobi
3. Byudjet tashkilotlarida g'azna muomalalari hisobi
4. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi
5. Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralari hisobi
6. Byudjet tashkilotlarida mehnat sarfi va unga haq to'lash hisobi
7. Yagona ijtimoiy to'lov va fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga to'lovlari hisobi
8. Byudjet tashkilotlarining debitorlar va kreditorlar bilan hisoblashishlar hisobi.
9. Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi.
10. Byudjet tashkilotlarida inventarlashni o'tkazish tartibi va uni hisobga olish
11. Byudjet tashkilotlarida hisobot

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor- o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

	IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Byudjet hisobi va hisoboti fanining predmeti va tamoyillari 2. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi 3. Byudjet tashkilotlarida nomoddiy aktivlar hisobi 4. Byudjet tashkilotlarida pul mablag'lari hisobi 5. Byudjet tashkilotlarida g'azna muomalalari hisobi 6. Byudjet tashkilotlarida investitsiyalar hisobi 7. Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralar hisobi 8. Byudjet tashkilotlarida mehnat va ish haqi hisobi 9. Byudjet tashkilotlarida debitorlik va kreditorlik majburiyatlar hisobi 10. Byudjet tashkilotlarida soliq va boshqa to'lovlar hisobi 11. Byudjet hisoboti 12. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot 13. Moliyaviy hisobot 14. Buxgalteriya balansi tuzilishi va tarkibi 15. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot 16. O'zbekiston Respublikasi "Byudjet hisobi to'g'risida"gi Qonunni qo'llashning ahamiyati 17. Byudjet hisobining standartlari 18. Daromad va xarajatlar hisobi 19. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar 20. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar va izohlar 21. Maqsadli jamg'arma va fondlar hisobi 22. Qimmatli qog'ozlar hisobi 23. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni uzlashtirish natijasida talaba: Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; Turli milliy kontekstlarda buxgalteriya hisobining tabiati va rollaridagi qiyosiy farqlar va bu farqlarning sabablari haqida <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; xalqaro buxgalteriya maydonda so'nggi yirik ishlanmalar uchun ratsionalizatorlik haqida tushunchaga <i>ega bo'lishi</i>; -samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ichki hisob va hisobot ma'lumotlarni qayta ishlashi va baholashi yo'llarini, moliyaviy hisobning xususiyatlari va hisobotni rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni o'tkazish bo'yicha va buxgalteriya hisobini tashkil etish xamda boshqarish to'g'risida malakalariga <i>ega bo'lishi kerak</i>
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish; • esse, tezis va maqolalar yozish; • vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;

	• jarayonli-yo‘naltirilgan ta’lim; • muhokamalarda ishtirok etish; • kichik guruhlarda ishlash; • loyiha ishi bajarish; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni echish; • so‘rovlar o‘tkazish; • aholi ro‘yxatlarini o‘tkazishda ishtirok etish.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test yoki yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. I.Ismanov, N.Toshmatov, S.Buzrukxonov “ Moliyaviy hisob va hisobot” Darslik // - T: Sano standart, 2019. - 560 bet 2. S.U.Mehmonov, D.Y.Ubaydullayev “Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi.” Darslik // -T: Sano standart, 2013. - 456 bet 3. M. Ostonaqulov “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi” O‘quv qo‘llanma// -T: Iqtisod-moliya, 2011. -520 bet Qo‘shimcha adabiyotlar 1. Sh. Ergasheva, A.K. Ibragimov, N.K. Rizaev, I.R. Ibragimova Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma.// -T.: Iqtisodiyot, 2019. -227 str. 2. Loose Leaf for International Accounting / Timothy Douppnik, Mark Finn, Giorgio Gotti, Flector Perera Professor Jan 16, 2019 3. The Education of a Value Investor: My Transformative Quest for Wealth, Wisdom, and Enlightenment (Hardcover) / by Guy Spier 2015 4. Keynes Hayek: The Clash that Defined Modern Economics (Paperback) / by Nicholas Wapshott 2011 5. Best Practices for Equity Research Analysts: Essentials for Buy-Side and Sell-Side Analysts (Hardcover) / by James J. Valentine 2010 6. Washed and Waiting: Reflections on Christian Faithfulness and Homosexuality (Paperback)/ by Wesley Hill 2010

	Axborot manbalari 1. www.norma.uz. 2. www.mf.uz/ 3. www.lex.uz 4. www.worldbank.org 5. www.bfa.uz 6. www.accountingtoday.com 7. www.soliq.uz 8. www.accaglobal.com 9. www.cbu.uz
7.	Fan daturi Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ular: D.J.Murodova - BuxDU, “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası o‘qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: Yu.U.Sunnatov -BuxDU, “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası mudiri, PhD. A.Ch. Boboev - BuxMTI, “Menejment” kafedrası dotsenti, i.f.n.

